Brifing: “O‘z davrining Batlimusi” deb tanilgan Ali Qushchi

Ali Qushchi ilmiy merosining o‘rganilishi haqida Fanlar akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi bo'lim boshlig'i Nodira MUSTAFAYEVA ma'lumot beradi.

“O‘z davrining Batlimusi” deb tanilgan Ali Qushchining to‘liq nomi Alouddin Ali ibn Muhammad al-Qushchi bo‘lib, u Samarqandda tug‘ilib o‘sgan.

Mirzo Ulug‘bek o‘limidan so‘ng Ali Qushchi Samarqandni tark etadi. 1472-yil bahoridan boshlab Turkiyadagi Ayya Sofiya madrasasiga bosh mudarris sifatida faoliyat yuritadi. Ali Qushchi Istanbuldagi Abu Ayyub Ansoriy maqbarasida dafn etilgan.

O‘zbekiston ilmiy delegatsiyasining Turkiyaga tashrifi natijasida Ali Qushchining o‘g‘li Qozi Abdurahmon Afandi tomonidan yozilgan “Ravnaqul bo‘ston” asari O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga olib kelindi.

Markazning “Ikkinchi Renessans” nomli ekspozitsiyasida Ali Qushchiga oid asarlar, ularning qo‘lyozmalari, faksimil nusxalari va nashrlari hamda astronomik jihozlar namoyishga qo‘yildi.

Ali Qushchining O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan 7 ta asari qo‘lyozmalari, shuningdek, uning jahon kutubxonalari va muzeylarida saqlanayotgan 23 ta asari qo‘lyozmalari bo‘yicha ma’lumot tayyorlandi.